



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 356 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajan Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
Alimov Asadulla Urokbayevich	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
Alimova Umida Jumaboy qizi	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
Islomova Xafiza Azamatovna	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
Kozimova Nargiza Istam qizi	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvalovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	



POSHSHOXO'JA IBN ABDUVAHOBXO'JANING “MIFTOH UL-ADL” ASARIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Muzaffarova Farida Muxtor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asrning yirik mutafakkiri va olimi Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing ilmiy-falsafiy merosi hamda uning “Miftoh ul-adl” asaridagi pedagogik va axloqiy qarashlari tahlil etiladi. Asarda ilgari surilgan adolat, komillik, axloqiy poklik, insoniylik va ta'lim-tarbiyaning ustuvorligi haqidagi g'oyalar zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy manba sifatida o'rganiladi. Shuningdek, olimning falsafiy qarashlari, axloqiy merosi va ularning bugungi ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'ja, Miftoh ul-adl, pedagogik qarashlar, falsafiy meros, axloqiy ta'lim, sharq mutafakkirlari.

Abstract: This article analyzes the scientific and philosophical heritage of the prominent 16th-century scholar and thinker Poshshakhoja ibn Abdurahobkhoja, with a particular focus on his pedagogical and ethical views presented in the treatise Miftoh ul-adl. The concepts of justice, perfection, moral purity, humanism, and the priority of education emphasized in the work are studied as valuable sources for modern pedagogy. Furthermore, the philosopher's moral heritage, his philosophical reflections, and their impact on contemporary educational and upbringing processes are highlighted.

Key words: Poshshakhoja ibn Abdurahobkhoja, Miftoh ul-adl, pedagogical views, philosophical heritage, moral education, Eastern thinkers.

Аннотация: В данной статье рассматривается научно-философское наследие выдающегося мыслителя и учёного XVI века Пошшаходжи ибн Абдувахобходжи, а также педагогические и нравственные взгляды, изложенные в его труде “Мифтох ул-адл”. Идеи справедливости, совершенства, нравственной чистоты, гуманизма и приоритета образования, выдвинутые в произведении, анализируются как важный источник для современной педагогики. Кроме того, освещаются философские воззрения учёного, его нравственное наследие и их влияние на современный процесс воспитания и обучения.

Ключевые слова: Пошшаходжа ибн Абдувахобходжа, Мифтох ул-адл, педагогические взгляды, философское наследие, нравственное воспитание, восточные мыслители.

KIRISH

XVI asr – Markaziy Osiyo tarixida murakkab, shu bilan birga ilm-fan va ma'naviyatning yangi bosqichga ko'tarilgan davrlaridan biridir. Bu davr siyosiy jihatdan Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri bilan bog'liq bo'lib, ularning davlat boshqaruvida madaniyat va ilmga alohida e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Ayniqsa, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlarning faoliyat yuritishi, qator sohalarda – ilohiyot, falsafa, tibbiyot, adabiyot va ijtimoiy fanlarda yirik mutafakkirlarning yetishib chiqishiga imkon yaratdi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, XVI asrda Buxoro, Samarqand, Hirot, Xorazm kabi shaharlarda ilmiy hayot ancha jonlanib, bu maskanlar Sharqning yirik ma'naviy-ma'rifiy markazlariga aylangan. Bu jarayonda ko'plab olimlar va mutasavviflar o'z asarlari orqali diniy va dunyoviy ilmlarning rivojlanishiga xizmat qilganlar. Shunday allomalardan biri sifatida Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'ja nomi alohida tilga olinadi.

Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'ja o'z davrining nafaqat diniy ilmlar bilimdoni, balki falsafiy tafakkurni rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlaridan biri hisoblanadi. Uning qarashlari Sharq ma'naviy merosida chuqur iz qoldirgan. Xususan, u o'z asarlarida Qur'on va hadis ilmlarini falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtirishga intilgan, axloqiy poklik, insonning kamoloti, jamiyatda ilmning o'rni kabi masalalarga keng e'tibor qaratgan.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlari, jumladan, XVI asr olimlarining merosini qayta o'rganish jarayoni davom etmoqda. Chunki ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy jamiyat

taraqqiyoti uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing ilmiy merosini tadqiq etish, uning qarashlarini o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing ilmiy faoliyatini tahlil qilish, uning o'z davri ilm-fan taraqqiyotidagi o'zni va keyingi avlod mutafakkirlariga ta'sirini o'rganish bugungi kun ilmiy jamoatchiligi uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing ilmiy merosi hali keng qamrovli tarzda chuqur tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Uning nomi XVI asr Sharq ilm-fan namoyandalari qatorida tilga olinadi, biroq alohida ilmiy izlanishlar hozircha cheklangan. Shunga qaramay, ayrim tarixiy va falsafiy manbalarda hamda zamonaviy tadqiqotlarda olimning faoliyati va qarashlariga qisqa to'xtalib o'tilgan.

Avvalo, Sharq mutafakkirlari merosini umumiy tarzda yorituvchi asarlarda Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing ilmiy faoliyati haqida muhim fikrlar uchraydi. Ularning tadqiqotlarida olimning diniy-ilmiy qarashlari, axloqiy va falsafiy merosi o'z davri madaniy-ma'naviy hayotining bir qismi sifatida ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari, XVI asr O'rta Osiyo ilmiy-ma'rifiy muhitini yorituvchi monografiyalar olimning ilmiy merosiga ma'lum darajada to'xtalib, uning qarashlarini tasavvufiy tafakkur va ma'naviy qadriyatlar kontekstida tahlil qilgan.

Ammo alohida ravishda Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'ja shaxsiyatini, uning asarlarini va g'oyaviy merosini maxsus ilmiy tadqiq qilish masalasi hali dolzarb bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uning merosini kengroq o'rganish, asarlarini nashr qilish, falsafiy va pedagogik qarashlarini chuqur tahlil etish bugungi kun tadqiqotchilari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarda Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing nomi ko'proq umumiy tarzda tilga olingan bo'lsada, uning ilmiy faoliyati maxsus tadqiqot obyekti sifatida hali yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa olimning merosini yangi manbalar asosida chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Poshshoxo'ja (asl ismi – Ibodullo Sayyid Poshshoxo'ja binni Abduvahobxo'ja) XVI asr Movarounnahr madaniy-madaniy muhitida faol bo'lgan – turkiy va forsiy adabiyotda ijod qilgan shoir, davlat arbobi va ulomolardan biri sifatida qayd etiladi. U Niso va Marv madrasalarida tahsil olgan, bir necha davlat lavozimlarida (hokimlik, sadrlik, shayxulislomlik) ishlagan hamda "Miftoh ul-adl", "Gulzor", "Maqsad ul-atvor" singari asarlar bilan mashhur. Uning hayoti va ijodi haqida manbalar biografik ma'lumotlar va asar nomlarini keltiradi.

Poshshoxo'janing ta'limiy faoliyati an'anaviy madrasaviy tizim sharoitida shakllangan: u Niso va Marv kabi markazlarda o'qigan va keyinchalik u o'z faoliyati orqali madrasaviy an'analarni davom ettirgan. Shu jihatdan uning pedagogik yondashuvi – ustoz-shogird munosabatlari, matn va xotira (hamda mantiq, sarf-nahv, fiqh, ilohiyot asoslari)ga tayanish edi. Bu holat uning yuqori ma'naviy va amaliy tayyorgarlik beruvchi faoliyatida aniq seziladi.

Poshshoxo'janing pedagogik qarashlarida bilim berish hamda axloqiy tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Uning didaktik asarlari (xususan "Miftoh ul-adl" va "Gulzor") davlat va jamiyat boshqaruvi, adolat, shaxsning axloqiy kamoloti haqida bo'lib, ularni nafaqat hukmdorlar uchun nasihatnoma, balki kengroq ta'limiy material sifatida ham talqin qilish mumkin. Bu asarlar madaniy va siyosiy moxiyatga egaligi bilan birga yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda foydalanish uchun mos modullarni ham taklif qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Poshshoxo'ja o'z asarlarida:

- mavzuni hikoya va pand-nasl usulida yoritib, o'rganishni osonlashtirish;
- she'riy va nasriy shakllardan pedagogik maqsadlarda foydalanish (g'azal, ruboiy orqali axloqiy masalalarni tushuntirish);
- hukmdor va ma'rifatli el yetakchilari uchun konkret amaliy ko'rsatmalar berish – kabi yondashuvlarni qo'llagan.

Bu metodika o'rta asr Sharq ta'lim an'anasida keng tarqalgan bo'lib, Poshshoxo'janing asarlarida ayniqsa adolat, insof va hukmdor mas'uliyatini ta'kidlovchi didaktik elementlar ko'p uchraydi.

Manbalar shuni ko'rsatadiki, Poshshoxo'ja o'z davrida shogirdlar yetishtirgan, ularning ba'zilar keyingi asrlarda o'z sohalarida faol bo'lgan. Uning pedagogik merosi nafaqat nazariy asarlarda, balki shogirdlar orqali ham tarqalgan. Holbuki, mazkur jihat hali to'liq filologik va arxiv tadqiqotlari orqali aniqlanishi lozim.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, Poshshoxo'ja o'z asarlarida Qur'oniy va tasavvufiy g'oyalar bilan falsafiy tafakkurni birlashtirishga intilgan. U diniy matnlarni falsafiy mulohaza bilan talqin etish, insonning ma'rifati va iroda



masalalarini chuqur muhokama qilish orqali o'quvchini nafaqat axloqan, balki intellektual jihatdan ham shakllantirishga harakat qilgan. Bunda u rivoyat (naql) va aqliy dalillarning muvozanatiga urg'u bergan.

Poshshoxo'janing asarlarida bilim manbalariga – vahiy, hadis, shuningdek mantiqiy tafakkurga – hurmat bilan qaraladi. U ilmni amaliy va ma'naviy jihatlar bilan baholab, bilimni insonni kamolga yetkazuvchi vosita sifatida ko'radi. Bu yondashuv musulmon falsafiy an'alaridagi "naql va aql" muammosiga mos keladi va uni mahalliy tarixiy-siyosiy sharoitlarda ijodiy tarzda talqin qiladi.

"Miftoh ul-adl" kabi asarlarda uning siyosat falsafasi aniq ifodalanadi: hukmdorning maqsadi adolatni ta'minlash, raiyatning farovonligi, va shaxsning axloqiy kamoloti bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Poshshoxo'ja siyosiy hokimiyatni ma'naviy mas'uliyat bilan bog'laydi va rahbarlarga amaliy axloqiy kodeksni taklif qiladi – bu jihatlar uning asarlarini nafaqat adabiy, balki siyosiy-falsafiy matn sifatida ham qimmatli qiladi.

Poshshoxo'janing ijodida axloqiy mavzular – shaxsiy fazilatlar (inqirozdan saqlanish, adolat, halollik), ijtimoiy mas'uliyat, hukmdor axloqi – markaziy o'rin egallaydi. Uning asarlarida pandnoma usulida axloqiy darslar berilib, hikoya va misollar yordamida axloqiy printsiplar mustahkamlanadi. Bu ishlar O'rta Osiyo pandnoma va adabiy-etik an'alarining bir qismi sifatida baholanadi.

Asarlarda yoshlar va el yetakchilari uchun ko'plab amaliy tavsiyalar berilgan: o'zini o'zi tarbiyalash usullari, ilm o'rganish va amalda qo'llashning axloqiy asoslari, rahbarlarga esa insof, odil hukm va raiyatni eslash kabi printsiplarga e'tibor tilga olinadi. Shu jihat Poshshoxo'jani nafaqat adabiy, balki pedagogik-axloqiy yozuvchi sifatida ham ko'rsatadi.

Poshshoxo'janing axloqiy g'oyalari keyingi asrlarda pandnoma va ma'naviy-pedagogik yozuvlarda aks etgan; uning asarlarida targ'ib qilingan hukmdor axloqi va jamiyat-ta'limiy yondashuvlar mintaqaviy etika an'alariga singib ketgan. Shu bilan birga uning asarlari va g'oyalari hozirgi kunda ham tarixiy-etnografik va madaniy tahlil obyekti bo'lib qolmoqda.

Poshshoxo'janing "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti") asari o'z davrida hukmdorlar, davlat arboblari va ziyolilar uchun yozilgan bo'lib, u nafaqat siyosiy-nasihatnoma, balki pedagogik qo'llanma sifatida ham qadrlangan. Unda insonni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ilmning o'rni, jamiyat hayotida adolat va insofning muhimligi keng yoritiladi. Muallif asarda axloqiy tarbiya masalalarini davlat boshqaruvi va shaxsiy kamolot bilan uyg'unlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Miftoh ul-adl"dagi asosiy g'oyalardan biri – ilmni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham insonning axloqiy kamolotida qo'llashdir. Xojaga ko'ra: ilm odamni "adolatli" va "odobli" qilishga xizmat qilishi lozim; bilim shaxsning nafaqat aqliy, balki ma'naviy-ruhiy tarbiyasini ham shakllantiradi; haqiqiy hukmdor yoki rahbar ilmiy savodli, ma'naviy pok va adolatli bo'lishi kerak.

Bu tamoyillar o'rta asr Sharq pedagogik merosida keng qo'llanilgan "ilm – amaliyot bilan uyg'unlashsa, inson mukammal bo'ladi" degan fikrga to'liq mos keladi.

"Miftoh ul-adl"da ustozning vazifasi shogirdni nafaqat bilim bilan, balki axloqiy ideal bilan tarbiyalash ekanligi ta'kidlanadi. Ustoz o'zini halol, odil, sabrli va bilimli tutsa, shogird ham shu xususiyatlarni o'zida shakllantiradi.

Didaktik metod sifatida asarda:

- hikoyatlar, rivoyatlar, diniy matnlar talqini;
- maqollar, pand-nasihatlar;
- hukmdor va donishmandlar haqidagi ibratli voqealar keng ishlatilgan.

Bu uslub shogirdning xotirasini mustahkamlash, ilmni amaliy misollar orqali o'zlashtirish va odobiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Asarning falsafiy mohiyati – adolat tushunchasining keng talqinida ko'rinadi. Poshshoxo'ja adolatni shaxsiy xulqdagi halollik, ijtimoiy munosabatlarda insof, davlat boshqaruvida mas'uliyat sifatida izohlaydi. Shu bois "adolat" bu asarda pedagogik va falsafiy kategoriyadir: u insonni ham, jamiyatni ham mukammal qilishning kaliti sifatida taqdim etiladi.

"Miftoh ul-adl"da ilm va aql bir-birini to'ldiruvchi manba sifatida ko'riladi. Muallif ilmni insonni zulmatdan najot qiluvchi nur, aqlni esa shu ilmdan to'g'ri foydalanish vositasi deb hisoblaydi. Bu qarash musulmon Sharqi falsafiy merosidagi "aql va naql" muvozanati masalasiga mos keladi. Asarda hukmdor "tarbiyalangan, bilimli va adolatli shaxs" sifatida tasvirlanadi. Xojaning fikricha, rahbarning shaxsiy axloqi davlatning barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Bu qarash Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si yoki Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"idagi hukmdor-rahbar konsepsiyasiga yaqin.



Asarda axloqiy tarbiya – ilmiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Muallif yoshlarga, shogirdlarga quyidagi fazilatlarni targ'ib qiladi:

- rostgo'ylik, halollik;
- sabr-toqat;
- insof va adolat;
- rahmdillik va muruvvat.

Shuningdek, hukmdorlarga ham maxsus axloqiy kodeks beriladi: raiyatni ezishdan tiyilish, insof bilan hukm chiqarish, ma'rifatparvarlik va diniy-ta'limiy qadriyatlarga e'tibor qaratish.

Bugungi ta'limiy yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraganda, "Miftoh ul-adl"ning pedagogik qiymati juda yuqori:

- tarbiya va ta'lim integratsiyasi – bilim berish bilan birga odob-axloqni shakllantirish;
- amaliy metodika – hikoya, pandnoma, ibratli voqea orqali o'rgatish;
- liderlik tarbiyasi – rahbar va mutaassil shaxslarni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish.

Bu jihatlar zamonaviy pedagogika nazariyalaridagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va axloqiy tarbiya konsepsiyasi bilan uyg'un keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'ja XVI asrning yirik mutafakkirlaridan biri bo'lib, uning "Miftoh ul-adl" asari nafaqat adabiy-badiiy, balki pedagogik va axloqiy-falsafiy jihatdan ham bebaho merosdir. Asarda ta'lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida qaralib, ilmning inson kamoloti, jamiyat barqarorligi va davlat boshqaruvidagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, "Miftoh ul-adl" asari o'z davrida pandnoma va nasihatnoma janrining yirik namunasi bo'lib, unda bilimli va odil shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan Tadqiqotchi O. Usmonovning ta'kidlashicha, Poshshoxo'ja qarashlari Sharq pedagogik merosining asosiy tamoyillari – "ilm va odob uyg'unligi" hamda "ustoz-shogird munosabatida tarbiya ustuvorligi" g'oyalari bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si, Kaykovusning "Qobusnoma"si, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"i kabi asarlar bilan qiyoslaganda, "Miftoh ul-adl"da hukmdor shaxsiga qo'yilgan pedagogik-axloqiy talablar yanada chuqur va tizimli yondashuvda bayon qilinganini ko'rish mumkin. Demak, Poshshoxo'ja ning pedagogik merosi Sharq pandnoma an'anasini davom ettirgan holda, uni yangi mazmun bilan boyitgan.

Shu bois, "Miftoh ul-adl" bugungi kunda ham yoshlarni ilmga rag'batlantirish, adolat va halollikka undash, ustoz-shogird munosabatlarini mustahkamlashda muhim ilmiy-pedagogik manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Danabekov, O. I. Xojaning "Miftoh ul-adl" asari qo'lyozma nusxalari va ularning o'rganilishi. – Oriens ilmiy jurnali, (2021).2(1), 45–53.
2. Usmonov, O. O'zbek pedagogik merosida pandnoma janri va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: (2019). Fan nashriyoti.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: (2004). Movarounnahr nashriyoti.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: (2012). Mumtoz so'z nashriyoti.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: (1997). G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
6. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: (2008). Ma'naviyat.
7. To'raqulov, S. O'zbek mumtoz pandnoma adabiyotida tarbiyaviy g'oyalar. – Toshkent: (2018). Universitet nashriyoti.
8. Erkinov, A. O'zbek mumtoz adabiyotida pand-nasihat an'analari. – Toshkent: (2001). Fan.
9. Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'ja. (. Miftoh ul-adl va Gulzor (tanlangan parchalar). – Toshkent: 1962)Adabiyot va san'at nashriyoti.
10. Qodirov, B. Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi. – Samarqand: (2020). SamDU nashriyoti.
11. Fayllar.org. Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'ja shaxsiyati va adabiy merosi haqida. – Elektron manba: (2022). <https://www.fayllar.org>
12. Oliy-mahad.uz. Poshshoxo'ja va uning "Miftoh ul-adl" asari haqida. – (2022). Elektron manba: <https://www.oliymahad.uz>
13. Milliy-cha.uz. Poshshoxo'ja hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar. – (2023).Elektron manba: <https://milliycha.uz>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.